

**“TOSH KASALLIGINING KIMYOVIY ASOSLARI”**

*Buxoro davlat tibbiyot instituti*

*Tibbiy kimyo kafedrası assistenti PhD*

***Raxmatov Shokirjon Botirovich***

*+99891 414 54 11*

*151- guruh talabasi **Sharopova Gulasal Shamsiyevna***

***Annotatsiya:*** *Tosh kasalligi (Urolitiyaz) buyrak va siydik yo'llarida toshlarning hosil bo'lishi bilan bog'liq kasallikdir. Ushbu holatning kimyoviy asoslarini kasallikning oldini olish, tashxislash va davolashda muhim ahamiyatga ega. Toshlar siydikdagi erimaydigan moddalar konsentratsiyasining oshishi yoki siydik muhitining o'zgarishi natijasida yuzaga keladi.*

***Kalit so'zlar.:*** *Urolitiyaz, Sistenuriya, Buyrak tosh kasalliklari, Oksalatlar uratlar Fosfatlar, Pionefroz, Struvit toshlari, Sistin, Purin.*

**Kirish.**

Buyrak tosh kasalliklari ham umumiy ham mahalliy omillar tufayli yuz beradi. Irsiy -konstitutsional moyillik va purin almashinuvining buzilishi umumiy omillar jumlasiga kiradi. Buyrak jomlarining yallig'lanish proseslari va ular siydikning dimlanib qolishi mahalliy omillardan sanaladi. Toshlarning kimyoviy tarkibi. Toshlar turli kimyoviy birikmalardan iborat bo'lishi mumkin

1. Kalsiy oksalat va kalsiy fosfat toshlari. Eng ko'p uchraydigan toshlar. Kalsiy oksalat siydikda kalsiy ionlarining yuqori konsentratsiyasi tufayli hosil bo'ladi. Bu birikmalar suvda yomon eriydi va kristallanishga moyil. Kalsiy Fosfat esa yuqori pH (ishqoriy muhit) sharoitida hosil bo'ladi.
2. Urata toshlari. Peshob kislotasi kristallari asosida hosil bo'ladi. Past pH (kislotali muhit) sharoitida urat ionlari siydikda to'planib, toshlar paydo bo'ladi. Bu odatda kam suv ichish va oqsilga boy ovqatlanish bilan bog'liq.
- 3.

Struvit toshlari. Struvit (magniy ammoniy fosfat) bakterial infektsiyalar natijasida yuzaga keladi. Ba'zi bakteriyalar siydikni ishqoriy muhitga aylantirib, tosh hosil qiluvchi kimyoviy reaksiyalarni rag'batlantiradi. 4. Sistin toshlari. Sistin aminakislota siydikda yuqori konsentratsiyada bo'lganda paydo bo'ladi. Bu kam uchraydigan genetik kasalliklar (Sistenuriya) natijasida yuzaga keladi. Buyrak toshlari asosan 3 xil bo'ladi. Oksalatlar, Fosfatlar va Uratlardir. Asosan toshlar aralash bo'ladi. Toshlar jomlarda bir yoki ikkala buyrakda uchrashi mumkin. Buyrak jomida bo'lgan toshlar siydikning oqib ketishini qiyinlashtiradi va shilliq pardalarni shikastlantiradi, bu esa askari yallig'lanishlarga sabab bo'ladi. Agar tosh siydikning chiqish yo'lini berkitib, siydik yo'lida tiqilib qolsa va shu sababli siydik buyrakdan qovuqqa bemalol oqib tushishiga to'sqinlik qilsa bu holda og'ir buyrak kasalligi – pionefroz yoki (gidra) deyiladi. Ya'ni buyrakda suyuqlik yoki yiring to'planishi kuzatiladi. Buyrakni rentgenda to'g'ri tekshirish to'g'ri diagnoz qo'yishda katta ahamiyatga ega, shu usul yordamida toshni aniq ko'rish, joylashgan joyini bilish mumkin. Ikkala buyrakni hamda siydik naylarini birga suratga olinadi. Toshlarning ko'pchiligi rentgen nurlarini o'tkazmasligi sababli, suratda toshlarning soyasi hosil bo'ladi. Oksalat toshlarining soyasi eng yaxshi ko'rinadi. Urat toshlarining soyasi yomon ko'rinadi. Fosfat toshlarining soyasi esa umuman ko'rinmaydi. Davolash va Parvarish qilish. Buyrak sanchiqlari xuruji vaqtida davolashda bemor yotishi, bel sohasiga issiq qilish, issiq vanna buyuriladi. Teri osti morfin, pantapon yoki promedolni atropin teng baravar yuboriladi. Xuruj bo'lmagan vaqtda operatsiya qilinadi. Yirik tosh siydik yo'lini bekitib qo'yganda va pionefrozda operatsiya qilinadi. Parhez ovqatlar buyurish buyrak tosh kasalligi bilan og'riyotgan bemorlar uchun katta ahamiyatga ega. Oksalat toshlari bo'lganda bemorga me'da sekretsiyasini qo'zg'atmaydigan taomlar buyuriladi, Oksalatlarga boy mahsulotlar (shipinat shovul, loviya pomidor shokolat kakao) cheklanadi. Tosh hosil bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar. 1. Suv balansining buzilishi. Yetarli miqdorda suv is'temol qilmaslik siydikning konsentratsiyalanishiga olib keladi, bu esa tosh hosil bo'lishini rag'batlantiradi.

2. Ovqatlanish xatolari. Kalsiy , oksalat, yoki peshob kislotasiga boy oziq – ovqatlar ko'p is'temol qilinishi toshlar hosil bo'lishiga sabab bo'ladi 3. Genetik omillar Ba'zi odamlarda genetik moyillik tufayli ularning siydik kimyosi o'zgarib, tosh hosil bo'lish xafi oshadi. 4. Siydik ph darajasi . Kislotali yoki Ishqoriy muhit kimyoviy birikmalarning cho'kmasini hosil qilishiga ta'sir qiladi Oldini olish va davolash usullari quyidagilar: 1 Suv ichishni ko'paytirish. Yetarli miqdorda suv ichish siydikni suyultiradi va kristallar hosil bo'lishini kamaytiradi.2. Ovqatni nazorat qilish . Oksalatga boy mahsulotlarni kamaytirish. (shokalat, ismaloq), tuz va oqsil me'yorda istemol qilish tavsiya etiladi. 3. Tibbiy dori vositalari. Toshning tarkibiga qarab ph darajasini me'yorda ushlab turuvchi, yoki kristallanishini oldini oluvchi dori moddalari tavsiya etiladi. 4. Jarrohlik yoki lazer yordamida toshlarni parchalash. Agar toshlar katta bo'lsa, tabiiy ravishda chiqib keta olmasa shu usullardan qo'llaniladi.Lazer terapiyaning maqsadi: Buyrakdagi toshlarni lazer yordamida mayda bo'laklarga bo'lish, bu esa ularni siydik yo'llari orqali chiqarishni osonlashtiradi.lazer yordamida katta toshlar ham kichik qismlarga ajratilib, ular osonlik bilan chiqariladi. Tibbiy asboblari siydik yo'llari orqali kiritiladi, shuning uchun minimal kesiklar tiklanish talab qilinadi. Bemor uchun kamroq kesishlar, jismoniy travmalar va tiklanish davri qisqa bo'ladi. Bemorlar jarayonni ancha oson va og'riqlarsiz o'tkaziladi toshlarni jarrohlik yo'li bilan davolashda katta va murakkab toshlarni olib tashlashda qo'llaniladi.dori vositalari va lazer yo'li foyda bermasa keyinchalik jarrohlik yo'liga o'tiladi

### **Xulosa.**

Tosh kasalligi siydik kimyosining murakkab o'zgarishlariga asoslangan bo'lib, uning kelib chiqishiga turli omillar sabab bo'ladi. Kimyoviy jarayonlarni tushunish orqali ushbu kasallikni samarali davolash va oldini olish mumkin. Profilaktika choralari sifatida to'g'ri ovqatlanish va suv balansini saqlash muhimdir. Organizmning yaxlit Sistema ekanligini unutmasligimiz va sog'lom turmush tarziga rivoj qilishimiz lozim . Biz buyrak tosh kasalligiga uchramasligimiz uchun kamroq tuz va tuzli mahsulotlarni is'temol qilishimiz

kerak. Barcha kasalliklar noto'g'ri ovqatlanishdan kelib chiqadi. (ABU NASR FAROBIY)

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Tibbiy ensiklopediyasi
2. A.Ahmedov. G. Ziyamutddinova “Anatomiya Fizalogiya va Patalogiya” 2019-yil Toshkent.
3. Nozima Bobojonova . “Buyrak tosh kasalligi:sabablari, belgilari va davolash
4. [WWW.AVITSENNA.UZ](http://WWW.AVITSENNA.UZ)
5. Ichki kasalliklar